

TURKIYA TASHQI SIYOASTIDA MADANIY DIPLOMATIYANING O'RNI VA AHAMIYATI

Xolmuradov Furqat

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Xalqaro munosabatlar va
zamonaviy siyosiy jarayonlar yo'nalishi 2-bosqich magistranti*

e-mail: xolmuradovfurqat001@gmail.com

[ORCID 0009-0007-2639-0659](https://orcid.org/0009-0007-2639-0659)

Ilmiy rahbar: Asrorxo'jayeva Ma'muraxon Abrorxo'jayevna

Annotatsiya. Ushbu maqolada Turkiya Respublikasining tashqi siyosatida madaniy diplomatiyaning tutgan o'rni va uning strategik ahamiyati keng qamrovda tahlil qilinadi. Madaniy diplomatiya Turkiya tomonidan "yumshoq kuch" vositasi sifatida qo'llanilib, mamlakatning xalqaro miqyosdagi ijobiy imijini shakllantirish, mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda turli xalqlar o'rtasida o'zaro ishonch va tushunishni rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Maqolada Turkiyaning madaniy diplomatiya siyosatining tarixiy ildizlari — Usmonli imperiyasi davridan boshlab Mustafa Kamol Otaturk islohotlari orqali shakllangan zamonaviy modeligacha bo'lgan davrda qanday rivojlanganligi izchil yoritilgan.

Kalit so'zlar: Yunus Emre instituti, TIKa, yumshoq kuch, Oltin ko'pri, TRT World, Anadolu Agency, diaspora, Oltin davr, paralel diplomatiya.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ КУЛЬТУРНОЙ ДИПЛОМАТИИ ВО ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ ТУРЦИИ

Холмурадов Фуркат

*Ташкентский государственный университет востоковедения
Магистратура 2 курса, специальность «Международные отношения и
современные политические процессы»*

e-mail: kholmuradovfurqat001@gmail.com

Научный руководитель: Асрорходжаева Маъмурахон Аброрходжаевна

Аннотация. В данной статье всесторонне анализируется роль культурной дипломатии во внешней политике Турецкой Республики и её стратегическое значение. Культурная дипломатия используется Турцией как инструмент «мягкой силы» и служит важным инструментом формирования позитивного имиджа

страны на международном уровне, укрепления региональной стабильности и развития взаимного доверия и взаимопонимания между различными народами. В статье последовательно рассматриваются исторические корни политики культурной дипломатии Турции — её развитие от Османской империи до современной модели, сформированной благодаря реформам Мустафы Кемаля Ататюрка.

Ключевые слова: *Институт Юнуса Эмре, ТИКА, мягкая сила, «Золотой мост», TRT World, Anadolu Agency, диаспора, «Золотой век», параллельная дипломатия.*

THE ROLE AND IMPORTANCE OF CULTURAL DIPLOMACY IN TURKEY'S FOREIGN POLICY

Kholmuradov Furqat

Tashkent State University of Oriental Studies 2nd year master's student in the field of International Relations and Modern Political Processes

e-mail: kholmuradovfurqat001@gmail.com

Scientific supervisor: Asrorkhojjaeva Ma'murakhon Abrorkhojjaevna

Abstract. *This article comprehensively analyzes the role of cultural diplomacy in the foreign policy of the Republic of Turkey and its strategic importance. Cultural diplomacy is used by Turkey as a tool of “soft power” and serves as an important tool in shaping the country’s positive image internationally, strengthening regional stability, and developing mutual trust and understanding between different peoples. The article consistently covers the historical roots of Turkey’s cultural diplomacy policy — how it has developed from the Ottoman Empire to its modern model formed through the reforms of Mustafa Kemal Atatürk.*

Keywords: *Yunus Emre Institute, TIKa, soft power, Golden Bridge, TRT World, Anadolu Agency, diaspora, Golden Age, parallel diplomacy.*

Kirish. *Hozirgi dunyo siyosatida diplomatiyani qo'llashning bir qancha usullari namoyon bo'lmoqda. “Qattiq kuch” omilidan ham boshqa yo'llar, vositalar orqali qo'yilgan maqsadga erishish imkoniyati mavjud. Bunday “yumshoq kuch” vositalaridan biri madaniy diplomatiya hisoblanadi. Turkiya madaniy faoliyatni amalga oshirishda qo'llayotgan vositalarining o'ri ham muhim. Masalan, Yunus Emre instituti, TIKa tashkiloti yoki*

telekommunikatsion faoliyatini keltirib o‘tish mumkin. Turkiya uchun madaniy diplomatiyani namoyon etishda boy tarixiy merosiga ega ekanligi alohida o‘rin tutadi, chunki madaniy jihat tarix bilan uzviy bog‘liq bo‘lib kelgan. Madaniy omil mamlakat tashqi siyosatida muhim va ajralmas qismlardan biri hisoblanadi. Madaniy diplomatiyaning ko‘rsatayotgan samarasi belgilangan maqsadlarga yetishda yaxshiroq va qulayroq usulga aylanishiga olib keldi. Turkiya madaniy diplomatiyani jadal rivojlantirishda davom etmoqda hamda bunda ko‘plab amaliyotlarni qo‘llamoqda. Turkiya uchun bu asosiy vazifalardan biriga aylanmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Usmonlilar davri Turkiyaning madaniy va ijtimoiy tuzilishiga chuqur ta‘sir ko‘rsatdi, Mustafó Kamol Otaturk esa G‘arb bilan integratsiya va modernizatsiyani maqsad qilgan. Bu davr Turkiya uchun xavf va qiyinchiliklar bilan birga imkoniyatlarni ham olib keldi. Madaniy diplomatiya Turkiyaga “yumshoq kuch”dan foydalangan holda xalqaro maydonda samarali rol o‘ynash imkonini berdi. Yunus Emre instituti va TIKa kabi davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan muassasalar bu diplomatik sa‘y-harakatlarning asosiy tashuvchisi sifatida faoliyat yuritmoqda. Yunus Emre instituti xorijda turk tilini o‘rgatish, turk madaniyati va san‘atini targ‘ib qilish kabi mavzularga e‘tibor qaratgan bo‘lsa, TIKa chet elda taraqqiyot loyihalari va gumanitar yordam ishlarini olib boradi. Ichki siyosat, tashqi siyosat va madaniy diplomatiya o‘rtasida yaqin aloqalar mavjud; ichki siyosatdagi o‘zgarishlar madaniy diplomatiya strategiyalariga ta‘sir qilishi mumkin¹⁰².

Dunyo miqyosida davlatlarning rivojlanganlik darajasi bugungi kunda ularning nafaqat sanoatni yoki eksport salohiyati yuqoriligi bilan, balki, boy madaniyatni jahonga ko‘rsata bilish va tashqi siyosatining eng muhim tarkibiy qismi sifatida madaniy diplomatik faoliyatni samarali tashkil qila olishi bilan belgilanilayotganligi namoyon bo‘lmoqda¹⁰³.

Turkiya ham katta tarixga ega, madaniy jihatlari ham yorqin darajada ekanligi madaniy diplomatiya borasida yetarlicha ta‘sir ko‘rsata olish imkoniyatini taqdim etadi. Masalan turizm sohasi Turkiya madaniy diplomatiyasida birinchilar qatorida turadi. Strategik va geografik jihatdan juda qulay bo‘lgan Istanbul shahri har yili minglab sayyohlar oqimini qabul qiladi. Bu shaharning tarixda “Oltin ko‘pri” degan nom olgani bejiz emas. Madaniy diplomatiya, bir tomondan, bugungi o‘zaro bog‘liq dunyoning globallasuvi, unda ommaviy muloqot texnologiyasining tarqalishi sharoitlarida turli mamlakatlar aholisining muloqoti jadallashib borishini ta‘minlaydi, tinchlik va barqarorlikni saqlashning muhim jihati

¹⁰² Nabat Garakhanova, Türkiye Cumhuriyeti’nde 100 Yılda Kültür Diplomasisi Gelişimi, Sayı: 64, 210 - 229, 29.10.2023. https://dergipark.org.tr/tr/pub/ikad/issue/80246/1362459?utm_source=chatgpt.com

¹⁰³ Sayfullayev D, Otajonov E. “Xalq diplomatiyasi” va “Madaniy diplomatiya” O‘zbekiston tashqi siyosating muhim yo‘nalishi. Sharq mash’ali. B-125.

hisoblanadi. Bunday madaniyat diplomatiya doirasida muvafaqiyatli amalga oshirilganida esa davlatga jahon maydonida o‘z milliy manfaatlarini himoya qilish va yoyish imkonini beruvchi mustahkam poydevor yaratib, jahondagi ijtimoiy fikr hamda insonlar, hamjamiyatlar, madaniyatlar yoki xalqlar mafkurasiga ta’sir ko‘rsatish uchun beqiyos salohiyatga ega bo‘ladi¹⁰⁴.

Madaniy diplomatiya Turkiyaning tashqi siyosatida muhim o‘rin tutadi. U yumshoq kuchni (soft power) mustahkamlash, ijobiy milliy imijni yaratish va dunyoning turli mintaqalarida Turkiyaning strategik ishtirokini kuchaytirishga xizmat qiladi. G‘arb va Sharq chorrahasida joylashgan Turkiya o‘zining boy tarixiy-madaniy merosidan foydalanib, zo‘ravonliksiz usullar orqali xalqaro ta’sir doirasini kengaytiradi. Turkiyaning madaniy diplomatiyasi shuningdek, geosiyosiy manfaatlarga xizmat qiladi. Markaziy Osiyoda umumturkiy ildizlar asosida birdamlik targ‘ib qilinsa, Bolqon mintaqasida esa umumiy islomiy-usmonli merosi ta’kidlanadi¹⁰⁵. Bundan tashqari, madaniy diplomatiya milliy imij va brend yaratish vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Xalqaro maydonda TRT World va Anadolu Agency kabi ommaviy axborot vositalari orqali Turkiyaning nuqtai nazari va xalqaro voqealarga munosabati targ‘ib qilinadi¹⁰⁶.

Turkiyaning xalqaro axborot kanallari, jumladan TRT World, ingliz tilida efirga uzatiladi va global auditoriyaga yo‘naltirilgan. Bu orqali Turkiya o‘z pozitsiyasini tushuntiradi va xorijiy auditoriyani o‘z madaniyati bilan tanishtiradi. OAV orqali boshqa mamlakatlar bilan hamkorlikda teleko‘rsatuvlar, san’at ko‘rsatuvlari, musobaqalar yoki loyihalar tashkil etiladi. Albatta ommaviy axborot vositalari barcha yangiliklarni tez tarqatishning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Madaniy xilma-xillikni ham boshqalarga tezkor namoyon etish aynan kommunikatsiya vositalari orqali amalga oshiriladi. Chet ellardagi turklar va ularning qarindoshlari bilan ishlash boshqarmasi (YTB) stipendiyalar va madaniy dasturlar orqali bu yo‘nalishda faoliyat yuritadi¹⁰⁷. Global miqyosda kuchayib borayotgan migratsiya jarayonlari natijasida Turkiya diasporasi, ayniqsa Yevropa davlatlarida keng ko‘lamda shakllangan bo‘lib, u Turkiya tashqi siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Madaniy diplomatiya nuqtai nazaridan diasporaning roli ikki yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: birinchidan, ular o‘z yashash joylarida turk madaniyatini, tili va diniy qadriyatlarini

¹⁰⁴ Sayfullayev D. O‘zbekistonda demokratiya g‘oyalari va qadriyatlarini rivojlantirishning zamonaviy strategik yo‘nalishlari. Sharqshunoslik №2.: T. 2021. B-164.

¹⁰⁵ Walker, J. (2010). The Impact of Turkish Cultural Diplomacy in the Balkans. *European Journal of Turkish Studies*, (11).

¹⁰⁶ Kaya, A. (2015). Islamisation of Turkey’s Foreign Policy through the Prism of the New Diaspora Policy: The Turkish Diaspora in Europe. **Journal of Balkan and Near Eastern Studies**, 17(4), 383–408.

¹⁰⁷ Yilmaz, S. (2017). Nation Branding and Turkey’s Recent Foreign Policy: The Role of Cultural Diplomacy. **Insight Turkey**, 19(1), 141–156.

ommalashtiruvchi vosita bo'lsa, ikkinchidan, ular orqali Turkiya davlatining ijobiy imijini mustahkamlash va xorijiy jamoatchilik bilan madaniy muloqotni chuqurlashtirish mumkin.

Germaniya, Fransiya, Niderlandiya va boshqa G'arbiy Yevropa mamlakatlarida faoliyat yuritayotgan turk madaniyat markazlari, masalan, Yunus Emre Institutlari, Diyanet vakolatxonalari va diasporaga oid nodavlat tashkilotlar bu borada muhim platformalardir. Shuningdek, xorijda faoliyat yuritayotgan turk san'atkorlari, jurnalistlari va ziyolilari ham madaniy diplomatiya tashuvchilaridir. Shu tariqa, diaspora nafaqat o'z milliy identitetini saqlab qolishga xizmat qilmoqda, balki Turkiyaning global darajadagi "yumshoq kuch" siyosatining amaliy ifodasiga aylanmoqda. Shuningdek, turk diasporasi tomonidan tashkillashtiriladigan madaniy festival, anjuman va diniy marosimlar ko'plab xorijiy fuqarolarning Turkiya madaniyatiga qiziqishini oshiradi. "Oltin davr" (2007–2013)dan so'ng, Turkiyaning xalq diplomatiyasi samaradorligi keskin pasaydi va mamlakatning xalqaro obro'-e'tibori ichki siyosiy beqarorlik, xalqaro maydonda tobora kuchayib borayotgan izolyatsiya va buning oqibatida yuzaga kelgan beqarorlik sababli zarar ko'rdi.

So'nggi yillarda Turkiya o'z kuchini ommaviy madaniyat, ayniqsa, televizion ko'rsatuvlarga qaratdi — mamlakat haqidagi muvaffaqiyatli hikoyalarni xorijiy auditoriyaga yetkazish maqsadida¹⁰⁸. Turkiyada bo'lgan voqealar va o'zgarishlar uning diplomatiya sohasidagi yo'nalishlarini ham o'zgartirishga majbur etdi. Ammo bu o'zgarishlar uning ko'p jihatdan foydasiga ishladi. Evan Potter (2008) ta'kidlaganidek, madaniy diplomatiya ham, boshqa har qanday diplomatiya shakli kabi, siyosiy maqsadga ega bo'lishi lozim. Milliy madaniyatni targ'ib qilishga qaratilgan, biroq hukumat tomonidan hech qanday moliyaviy yoki mafkuraviy ishtirok bo'lmagan faoliyatlar madaniy diplomatiya deb atalishi mumkin emas. Aynan Yaqin Sharqda, boshqa mintaqalarga qaraganda ko'proq, Turkiya qo'shni davlatlarning unga nisbatan qarashlarini o'zgartirish uchun jiddiy harakat qilishi kerak bo'ldi. Mintaqada o'zining salbiy obro'siga ega ekanini anglab yetgan Turkiya ijobiyroq obrazni yaratish yo'lida bir qator tashabbuslarni amalga oshirdi. Shu maqsadda, Turkiya xalq diplomatiyasini yanada keng qamrovli tarzda rivojlantirishni boshladi va bunda madaniy vositalardan faol foydalanishga kirishdi.

Natija va muhokamalar.

Shunday qilib, Turkiyaning madaniy diplomatiyasi kengroq xalq diplomatiyasi kun tartibining bir tarmog'i sifatida shakllandi va u 2010-yilda Xalq Diplomatiyasi Koordinatsiya Boshqarmasi (Kamu Diplomasisi Koordinatörlüğü, KDK) tashkil etilishi bilan institutsional tus oldi. KDKdan tashqari, Bosh vazirlik huzurida Turkiyaning madaniy

¹⁰⁸ Persuading through Culture, Values, and Ideas: The Case of Turkey's Cultural Diplomacy.

<https://www.insightturkey.com/articles/persuading-through-culture-values-and-ideas-the-case-of-turkeys-cultural-diplomacy>

diplomatiyasini mustahkamlashga qaratilgan boshqa tashkilotlar ham tuzildi, jumladan: Matbuot va axborot bosh boshqarmasi (DGPI), Chet eldagi turklar va qardosh jamiyatlar bo'yicha boshqarma (YTATB), Yunus Emre instituti, TRT6 telekanali va Maarif jamg'armasi. Madaniy diplomatiyani rivojlantirish borasida alohida unga urg'u berilgani tashkil etilgan institutlar misolida yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu institutlar ancha ijobiy natijalarni ham olib kelmoqda. "21-asr — bu Turkiya nafaqat ichki siyosat, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda, balki tashqi siyosat va diplomatiya borasida ham chuqur o'zgarishlarni boshdan kechirayotgan davrdir. Ushbu davrda, turk ta'lim muassasalari, mahalliy hokimiyat organlari va turli nodavlat notijorat tashkilotlari tomonidan madaniy tadbirlardan tortib, insonparvarlik yordami ko'rsatishgacha bo'lgan faoliyatlar orqali bir-biriga yaqin shakldagi "paralel diplomatiya" olib borildi. Bu esa Turkiya tashqi siyosatining ko'rinmas kuchi bo'lib xizmat qildi. Shu bois, madaniy diplomatiyaning asosiy ishtirokchilari bo'lgan yetakchi nodavlat tashkilotlari tomonidan ishlab chiqiladigan strategiya va ularni zarur resurslar bilan ta'minlash nafaqat mamlakatning demokratik tuzilmasini mustahkamlaydi. Eng asosiysi, bunday strategiya orqali global miqyosda madaniy diplomatiya sohasida yetakchi rol o'ynayotgan Turkiyaning yumshoq kuchi yanada samarali va sezilarli bo'ladi." - deya ta'kidlaydi yozuvchi Hale Shivg'un¹⁰⁹. Albatta muallifning gaplari tasdig'i o'laroq, yuqorida ta'kidlab o'tilgan o'zgarishlarni keltirish mumkindir.

Xalqaro miqyosda madaniy diplomatiya doirasidagi madaniy targ'ibot faoliyatlari mamlakat imiji, obro'-e'tibori va u yuritmoqchi bo'lgan tashqi siyosatning samaradorligi nuqtai nazaridan muhim rol o'ynaydi. Madaniy targ'ibot tashqi siyosatning ajralmas qismidir va shu bois uning ustuvor yo'nalishlariga mos ravishda olib borilishi kerak. Targ'ibotdagi muvaffaqiyat uzoq muddatli rejalashtirish, global nuqtai nazar, sinchkov amalga oshirish va ishtirokchilar o'rtasidagi kuchli muvofiqlashtirishga asoslangan yondashuvni talab qiladi. Turkiya ko'plab sivilizatsiyalarga beshik bo'lgan, qadimiy tamaddunlarning an'analari va madaniyatini meros qilib olgan, o'ziga xos madaniyatini yaratgan va shu yo'nalishda boshqa mamlakatlar va xalqlarga o'z hissasini qo'shgan bir davlatdir. Bu boy madaniyat va jozibali geografik joylashuv boshqalarda qiziqish uyg'otishi tabiiydir.

Targ'ibot faoliyatining asosiy maqsadi – turli tadbirlar orqali dunyoga mamlakatimizga xos bo'lgan qadriyatlar, tarix, til, adabiyot, arxeologik boyliklar, ilmiy yutuqlar, san'at, me'morchilik, oshxona, an'analari, e'tiqodlar, ibratli shaxslar, sport kabi jihatlarni tanishtirishdan iborat. Shu ma'noda, Tashqi ishlar vazirligi boshqa davlatlardagi keng ommani qamrab oluvchi ko'plab madaniy targ'ibot tadbirlarini o'tkazishda Turkiyaning

¹⁰⁹ Hale Şıvgın. Rising Value of Turkish Foreign Policy: Cultural Diplomacy.

<https://doaj.org/article/6af094f4c0634579a484d2d3bd22e454>

tegishli vakolatli idora va muassasalari bilan hamkorlik qiladi.¹¹⁰. Ko‘rinib turganidek, mamlakat tashqi ishlar vazirligi ham turli xil tadbirlar o‘tkazishda madaniyatga urg‘u berib bormoqda. Turkiya madaniy diplomatiyasi tarixiy meros, diniy va madaniy qadriyatlar, ta’lim, OAV, va turizm kabi ko‘p qirrali yo‘nalishlarda faol olib borilmoqda. Yunus Emre instituti, TIKA, YTB, TRT World, Anadolu Agency va boshqa muassasalar orqali Turkiya o‘z madaniyatini xalqaro maydonda keng targ‘ib etmoqda. Bu jarayonlar Turkiyaning nafaqat G‘arb va Sharq o‘rtasidagi ko‘prik, balki xalqaro diplomatiya maydonida faol ishtirokchi sifatidagi mavqeiini mustahkamladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nabat Garakhanova, Türkiye Cumhuriyeti’nde 100 Yılda Kültür Diplomasisi Gelişimi, Sayı: 64, 210 - 229,
2. Sayfullayev D, Otajonov E. “Xalq diplomatiyasi” va “Madaniy diplomatiya” O‘zbekiston tashqi siyosating muhim yo‘nalishi. Sharq mash’ali. B-125.
3. Sayfullayev D. O‘zbekistonda demokratiya g‘oyalari va qadriyatlarini rivojlantirishning zamonaviy strategik yo‘nalishlari. Sharqshunoslik №2.:T. 2021. B-164
4. Nye, J. S. (2004). Soft Power: The Means to Success in World Politics. PublicAffairs.
5. Walker, J. (2010). The Impact of Turkish Cultural Diplomacy in the Balkans. *European Journal of Turkish Studies*, (11).
6. Kaya, A. (2015). Islamisation of Turkey’s Foreign Policy through the Prism of the New Diaspora Policy: The Turkish Diaspora in Europe. **Journal of Balkan and Near Eastern Studies**, 17(4), 383–408
7. Yilmaz, Ş. (2017). Nation Branding and Turkey’s Recent Foreign Policy: The Role of Cultural Diplomacy. **Insight Turkey**, 19(1), 141–156
8. Persuading through Culture, Values, and Ideas: The Case of Turkey’s Cultural Diplomacy.
9. Hale Şıvgın. Rising Value of Turkish Foreign Policy: Cultural Diplomacy.
10. Republic of Turkey. Ministry of foreign affairs.

¹¹⁰ Republic of Turkey. Ministry of foreign affairs. <https://www.mfa.gov.tr/promotion-of--turkiye-abroad.en.mfa>